



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



**VOL.3 № 2**

**2026**

## **ONA TILI DARSЛИKЛАRIDA KESIM MAVZUSI: TA'RIF, IZOH VA ILMIY- TAHLILII YONDASHUV**

**Jumayeva Feruza Uralovna**

Jizzax davlat pedagogika universiteti, dotsent (PhD)

### **Annotatsiya**

Ushbu maqola maktab darsliklarida berilgan kesim haqidagi qoidalarni tavsiflash, izohlash va aniqlashtirishga qaratilgan. Unda kesimning gapdagi o'rni, grammatik va semantik xususiyatlari sodda va tushunarli tarzda sharhlanadi hamda darsliklarda keltirilgan ta'rif va misollar ilmiy-nazariy jihatdan kengroq izohlanadi. Shuningdek, fe'l kesim va ot kesim, sodda va murakkab kesimlar, mustaqil va nomustaqil kesimlar misollar asosida tahlil etilgan, ularning qo'llanish xususiyatlari ochib berilgan. Maqola o'quvchilarning mavzu yuzasidan bilimini mustahkamlash va o'qituvchilarga metodik jihatdan yordam berishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** kesim, bosh bo'laklar, fe'l kesim, ot kesim, sodda kesim, murakkab kesim, mustaqil kesim, nomustaqil kesim, predikativlik, shaxs-son kategoriyasi, zamon kategoriyasi, mayl shakllari, sintaktik munosabat, ergashgan qo'shma gap, hokim va tobe bo'laklar.

## **ТЕМА СКАЗУЕМОГО В УЧЕБНИКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА: ОПРЕДЕЛЕНИЕ, ИНТЕРПРЕТАЦИЯ И НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ПОДХОД**

**Жумаева Феруза Ураловна**

Джизакский государственный педагогический университет, доцент (PhD)

### **Аннотация**

Данная статья направлена на описание, разъяснение и уточнение правил о сказуемом, представленных в школьных учебниках. В ней в доступной и понятной форме рассматриваются место сказуемого в предложении, его грамматические и семантические особенности. Приведённые в учебниках определения и примеры анализируются и расширяются с научно-теоретической точки зрения. Кроме того, на основе конкретных примеров уточняются виды сказуемого — глагольное и именное, их простые и составные формы, а также самостоятельные и несамостоятельные разновидности, раскрываются особенности их употребления. Статья направлена на укрепление знаний учащихся по данной теме и оказание методической помощи учителям.

**Ключевые слова:** сказуемое, главные члены предложения, глагольное сказуемое, именное сказуемое, простое сказуемое, составное сказуемое, самостоятельное сказуемое, несамостоятельное сказуемое, предикативность, категория лица и числа, категория времени, формы наклонения, синтаксические отношения, сложноподчинённое предложение, главные и зависимые члены предложения.

## **THE TOPIC OF THE PREDICATE IN NATIVE LANGUAGE TEXTBOOKS: DEFINITION, INTERPRETATION, AND SCIENTIFIC-ANALYTICAL APPROACH**

**Jumayeva Feruza Uralovna**

Jizzakh State Pedagogical University, Associate Professor (PhD)

### Abstract


This article is aimed at describing, explaining, and clarifying the rules concerning the predicate presented in school textbooks. It discusses the role of the predicate in a sentence, as well as its grammatical and semantic features, in a clear and accessible manner. The definitions and examples provided in textbooks are further analyzed from a broader theoretical and scientific perspective. In addition, the types of predicates—verbal and nominal—their simple and compound forms, as well as their independent and dependent forms, are clarified through relevant examples, and their usage features are examined. The article serves to strengthen students' understanding of the topic and to provide methodological support for teachers.

**Keywords:** predicate, main parts of the sentence, verbal predicate, nominal predicate, simple predicate, compound predicate, independent predicate, non-independent predicate, predicativity, category of person and number, category of tense, mood forms, syntactic relations, complex subordinate sentence, principal and subordinate elements.

O'zbek tilshunosligi hamda metodikada kesim va uni o'qitish masalalari chuqur o'rganilgan. Ona tili darslarida kesimning gapdagi o'rni va vazifasini yoritish, ularning turlarini izohlashda semantik, kognitiv yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ishda ona tili darslarida kesim mavzusini tushuntirish va o'zlashtirish jarayonini yengillashtirish maqsadida tavsifiy hamda tahliliy yondashuvlar asosida uning mohiyatini kengroq yoritishga e'tibor qaratildi.

Ma'lumki, gap bo'laklari ikki asosiy guruhga ajratiladi: bosh bo'laklar (ega va kesim) hamda ikkinchi darajali bo'laklar (to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol). Ega va kesim gapning mazmuniy va grammatik asosini tashkil etadi. Kesim gapda shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor kabi grammatik ma'nolarni ifodalaydi hamda ega bilan shaxs va son jihatidan moslashadi. Masalan: *Men o'qidim* (*men* – I shaxs birlik, *o'qidim* – I shaxs birlik); *Biz o'qidik* (*biz* – I shaxs ko'plik, *o'qidik* – I shaxs ko'plik). Ega va kesim o'zaro nafaqat grammatik, balki mazmun jihatdan ham muvofiqlikka ega bo'ladi. Masalan, *oqmoq* harakati odatda jonsiz yoki tabiiy obyektlarga (*suv*, *daryo*) xos bo'lsa, *gullamoq* harakati o'simliklarga nisbatan qo'llanadi. Shunga ko'ra *Suv oqdi*; *Gul gulladi* kabi gaplarda ega va kesim o'rtasida mazmuniy muvofiqlik kuzatiladi. Kesim “harakat” (U yozdi), “jarayon” (*Gul o'smoqda*), “holat” (U kasal), “aniqlik” (U o'qituvchi), “miqdor” (Ular uchta) kabi turli ma'nolarni bildirib, nima qildi, nima qilyapti; kimdir?, nimadir?, qayerdir? kabi so'roqlarga javob bo'ladi. *U yugurdi*. (U nima qildi?). *Bu qovun shirin*. (Bu qovun qanday?)

Kesim gapning mazmuniy markazidir. U hukmni ifodalaydi. *Men uyga boraman* sintaktik qurilmasi gap hisoblanadi. Unda harakat bajaruvchisi (*men*), harakat yo'naltirilgan obyekt (*uyga*) va harakat (*boraman*) tushunchasi ifodalangan. Gaplikning asosiy belgilarini o'zida jam etgan eng muhim bO'lak – kesim hisoblanadi. M., *Men uyga boraman* gapining “Men uyga” qismini olsak, bu qism gapni hosil qilmaydi, chunki unda voqelik haqida fikr, hukm, axborot aks etmaydi. “Boraman” qismi esa gap hisoblanadi. Chunki *bor(moq)* morfemasi orqali harakat-holat ma'nosi va uning qaysidir obyektga yo'nalganligi haqida axborot hosil bo'ladi. *-a* morfemasi harakatning bajarilish zamon, *-man* morfemasi esa harakatni bajaruvchi shaxs va uning soni haqida tushuncha hosil qiladi. Shu ma'nolariga ko'ra *boraman* bo'lagi gapda boshqa bo'laklarsiz ham gap mazmunini ifodalaydi. Kesim unga tobelangan boshqa bo'laklarsiz ham gap bo'la oladi. Masalan: *Yaxshimisiz? Keldi*. Kesim orqali gap nisbiy tugallangan fikrni ifodalaydi. Kesim gaplarni bir-biridan ajratib, ular o'rtasidagi mazmuniy chegarani ko'rsatib turuvchi bo'lakdir. Gap bo'laklari joylashuvining odatdagi tartibiga ko'ra kesim gapning oxirida keladi. Gapning boshqa bO'laklari (ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol)ni O'z atrofida birlashtiradi.



Biz bugun sayohatga boramiz.


Kesim gapning mazmuniy markazi hisoblanadi. Kesimning ma'nosi keng bo'lib uni, aniqlashtirish, to'ldirish maqsadida ikkinchi darajali bo'laklar yuzaga chiqadi. M., *o'qimoq* fe'li "shaxs" ma'nosiga ega va uni aniqlashtirish uchun *kim?* so'rog'i beriladi: *Kim o'qidi? O'quvchi o'qidi. U o'qidi. Nasiba o'qidi* va h.k. O'qish harakati qaysi narsa ustida amalga oshirilganini aniqlashtirish uchun *nimani?* so'rog'i beriladi: *Nimani o'qimoq? Kitobni o'qimoq. Hikoyani o'qimoq* va h.k. Bu harakat qachon bajarilganini aniqlash uchun *qachon o'qidi?* so'rog'i beriladi.

| O'qimoq (shaxs, narsa, va paytni aniqlash) |                 |
|--------------------------------------------|-----------------|
| Kim o'qidi?                                | O'quvchi o'qidi |
| Nimani o'qidi?                             | Kitobni o'qidi  |
| Qachon o'qidi                              | Bugun o'qidi    |
| O'quvchi kitobni bugun o'qidi              |                 |

Kesim orqali ifodalangan lug'aviy va grammatik ma'nolarni ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol izohlab keladi. Kesimda anglashilgan shaxs, narsa, obyekt, sabab, maqsad, holat, payt kabi ma'nolar sintaktik qurilmada ega, nomustaqil kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol orqali voqelanadi.


| O'qi                                                                  | di                          |                                                             |
|-----------------------------------------------------------------------|-----------------------------|-------------------------------------------------------------|
| <i>O'quvchi</i>                                                       | <i>kitob</i>                | <i>O'quvchi</i>                                             |
| O'qish harakatining bajaruvchisi sifatida lug'aviy ma'noni izohlaydi. | Lug'aviy ma'noni izohlaydi. | I shaxs, birlik ma'nosida ko'ra grammatik ma'noni izohlaydi |
|                                                                       |                             | <i>bugun</i>                                                |
|                                                                       |                             | Grammatik ma'noni izohlaydi                                 |

Kesimning ma'nosini izohlashga xizmat qiluvchi bu bo'laklar shu jihatiga ko'ra kesimga tobe bo'ladi. Gapda barcha gap bo'laklari: ega ham, ikkinchi darajali bo'laklar (to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol) ham bevosita yoki bilvosita kesimga tobelanadi. M., *kitobni o'qidim* gapida to'ldiruvchi kesimga bevosita bog'langan.



Kitobni o'qidim.

*Kitob o'qishni biladi* gapida *kitob* – to'ldiruvchi, *biladi* – kesim. To'ldiruvchi (kitob) kesim (biladi)ga bilvosita (o'qishni bo'lagi orqali) tobelangan.



**Kitob o'qishni biladi.**

Kesim qaysi turkum so'zlari bilan ifodalanishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: fe'l kesim va ot kesim. Fe'l kesim harakat yoki jarayonni, ot kesim esa shaxs, predmet yoki belgi haqida hukmni ifodalaydi. Har ikkala tur ham gapning grammatik asosini tashkil etadi va predikativlikni yuzaga chiqaradi. Fe'l orqali ifodalanib, nima qilmoq?, nima bo'lmoq? so'roqlariga javob bo'luvchi kesimlar fe'l kesim hisoblanadi. Masalan: *Qushlar sayraydi.* Fe'ldan boshqa mustaqil so'z turkumlari (ot, sifat, son, ravish, olmosh) orqali ifodalanib, kim?, nima?, qanday?, qancha? kabi so'roqlarga javob bo'luvchi kesimlar ot kesim deyiladi. Masalan: *Osmonimiz-musaffo.* Bu gapda *musaffo* (sifat) so'zi kesim vazifasida kelib, predmetning belgisini bildirgan. Fe'lning sof fe'l va ravishdosh shakli orqali ifodalangan kesim fe'l kesim deyiladi. M.: *Avval o'yla, keyin so'zla* (Maqol); *To'ying boshi – boshlanguncha* (Maqol)

Fe'lining sifatdosh va harakat nomi shakllari, shuningdek ot, sifat, son, olmosh, ravish, undov hamda taqlid so'zlar bilan ifodalangan kesim ot kesim deb ataladi. Ot kesim fe'lga xos shaxs-son va zamon shakllari yoki bog'lamalar orqali yuzaga chiqadi hamda predmetning belgi-xususiyati, miqdori, shaxsi, holati haqidagi xabar, darak mazmunini bildiradi.

Sifatdoshlar otlashgan holda ot kesim vazifasida keladi. M.: *Ular o'qiganlar*. (Ular kimlar? Ular o'qigan odamlar); *Ular g'olib bo'lganlar*. (Ular kimlar? Ular g'olib bo'lgan odamlar). Egalik, kelishik qo'shimchalari va ko'makchilar bilan kelgan ayrim sifatdoshlar otga bog'lanmaydi, uni izohlamaydi. Ayniqsa, ot kesim vazifasida kelgan bunday sifatdoshlar yo'q so'zini olib, "bo'lishsizlik" ma'nosini hosil qiladi va bunday sifatdoshlarni otga tobelantirib bo'lmaydi. Ular otlashmagan sifatdoshlar deb tahlil etiladi. M., *Men borgan/im yo'q; Sen borgan/ing yo'q; U borgan/i yo'q; Biz borgan/imiz yo'q; Siz borgan/ingiz yo'q; Ular borgan/i yo'q*. Harakat nomi ot kesim vazifasida keladi: *Maqsadimiz – eng qulay va samarali yechimlarni taqdim etish*.

Ot kesimlar ot bilan ifodalanadi: *Yaxshi ro'zg'or – jannat, yomon ro'zg'or – dO'zax*. (Maqol). Jo'nalish, o'rin payt, chiqish kelishigidagi so'zlarning ham kesim vazifasida kelishi uchraydi. Bunday so'zlarning kesim vazifasida kelishiga gap tarkibidan fe'l kesimning tushib qolishi sabab bo'ladi. M.: *Bu kitob ukamga. Kitobim stolda* (Kitobim stolda turibdi); Sifat turkumidagi so'zlar bilan ifodalanadi: *Usti yaltiroq, ichi qaltiroq*. (Maqol). Sifat otlashgan (Ular bilimdonlar) va otlashmagan (*Havo issiq*) holda ot kesim vazifasini bajaradi; Son turkumidagi so'zlar bilan hosil bo'ladi: *Birniki – mingga, mingniki – tumanga*. (Maqol); *Mening o'g'lim hamisha birinchi...* (T.Murod); *Ikki o'n besh – bir o'ttiz* (Maqol); Olmosh bilan: *Maqsadim – shu; O'zim har joydaman, ko'nglim sandadur. (QO'shiq); Do'sting kim?*; Ravish bilan: *Ammo Miryoqub akaning yurishi ko'p!* (Cho'lpon); Undov so'zlar bilan: *Bu ishning oxiri voy*; Taqlid so'zlar bilan ifodalanadi: M.: *Oyoq osti - «chilip-chipip», Zirqiraydi eski yaralar...* (A.Muxtor); *Chigirtkaning ovozi qanaqa? Chigirtkaning ovozi chirr-chirr*.

Kesimni hosil qiluvchi grammatik shakl va ma'no quyidagicha ifodalanadi:

1. Har bir kesimlik ma'nosi alohida-alohida kesimlik shakllari bilan ifodalanadi. *O'qidim* (-di o'tgan zamon shakli, xabar maylini ifodalaydi, - m shaxs-son shakli).
2. Barcha kesimlik ma'nolari bitta kesimlik shakli bilan ifodalanadi. M., *O'qidi*. (-di zamon shakli o'tgan zamon ma'nosi bilan birga III shaxs birlik, xabar maylini ham ifodalaydi).
3. Ba'zan kesim tarkibida kesimlik ma'nosini ifodalovchi kesimlik shakllari bo'lmaydi.

| <i>O'qi</i>      |                        |                            |                        |
|------------------|------------------------|----------------------------|------------------------|
| Kesimlik ma'nosi | "Buyruq-istak" ma'nosi | "II shaxs, birlik" ma'nosi | "Kelasi zamon" ma'nosi |
| Kesimlik shakli  | 0                      | 0                          | 0                      |

Ot kesimlar ham shunday xususiyatlarga ega. M., *Men o'quvchiman* (kesimlik shakli -man); *Men – o'quvchi* (kesimlik shakli yo'q, kesimlik ma'nosi bor). Har ikkila gapdagi kesimlarda "xabar mayli", "hozirgi zamon", "I shaxs birlik" ma'nosi ifodalangan.

Kesim tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: sodda kesim va murakkab kesim.

| Kesimning tuzilishi                                      |               |                |                             |                |
|----------------------------------------------------------|---------------|----------------|-----------------------------|----------------|
| So'z (sodda, qo'shma, juft, takroriy, qisqartma so'zlar) |               |                |                             | So'z birikmasi |
| Sodda kesim                                              | fe'l          | Sodda ot kesim | Murakkab (qo'shma) ot kesim | Murakkab kesim |
| Bitta so'zdan                                            | Bitta so'zdan | Ikki va undan  | Ikki va undan               | So'z birikmasi |

|                 |                |                                 |                                  |                                                |
|-----------------|----------------|---------------------------------|----------------------------------|------------------------------------------------|
| iborat bo'ladi. | iborat bo'ladi | ortiq so'zdan<br>iborat bo'ladi | ortiq so'zdan<br>iborat bo'ladi. | va turg'un<br>birikmalardan<br>iborat bo'ladi. |
|-----------------|----------------|---------------------------------|----------------------------------|------------------------------------------------|

Sodda fe'l kesim – bu tarkibi faqat bitta so'zdan iborat bo'lgan kesimdir. Masalan: *U o'qidi*. Sodda fe'l kesim odatda sof fe'l yoki ravishdosh shakli orqali ifodalanadi. Sof fe'l shakli orqali ifodalangan sodda fe'l kesim tarkibida shaxs-son, zamon, mayl kabi grammatik shakl va ma'nolar mavjud bo'lib, ular kesimlik ma'nosini ta'minlaydi, gap mazmunini yaratadi. M., *Sen o'qiysan* gapida kesim orqali “tasdiq”, “kelasi zamon”, “xabar”, “II shaxs, birlik” ma'nosi ifodalangan.

Murakkab fe'l kesim fe'l + fe'l qolipida yasalgan qo'shma fe'llar (U sotib oldi); ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi (U o'qib chiqdi); to'liqsiz fe'lni olgan sof fe'llar (U o'qigan edi. Ba'zan to'liqsiz fe'llar qisqargan holda qo'llanadi. U o'qigandi) orqali ifodalanadi.

Aytib o'tish joizki, qo'shma fe'llar ikki xil usulda yasaladi: fe'l+fe'l hamda ismlar +fe'l. Fe'l+fe'l qolipida yasalgan qo'shma fe'llar gapda murakkab fe'l kesim vazifasini, ismlar+fe'l tarzida yasalgan qo'shma fe'llar esa murakkab ot kesim vazifasini bajaradi. M.: *Kitob sotib oldim* (sotib oldim – murakkab fe'l kesim); *She'rni yod oldim* (yod oldim – murakkab ot kesim).

Sodda ot kesim bitta so'zdan iborat bo'ladi. Ot, sifat, son, olmosh, ravish, harakat nomi, otlashgan sifatdosh, undov va taqlid so'zlar -man, -san, -dir, -miz, -siz, -dir, bog'lamlarini olib sodda ot kesim vazifasida keladi. M.: *Men o'quvchiman. Sen a'lochisan. Siz birinchisiz. Tanlaganimiz shulardir. Do'stimiz ko'pdir*

Ot, sifat, son, olmosh, ravish, harakat nomi, otlashgan sifatdosh, undov va taqlid so'zlarga *bo'lmoq, sanalmoq, hisoblanmoq; kerak, lozim, darkor, muhim, mumkin, shart; edi, ekan, emish, emas* kabi bog'lamlarni qo'shish bilan murakkab ot kesim hosil qilinadi. M., *Men shifokor bo'laman* (shifokor bo'laman – kesim); *U shifokor edi* (shifokor edi – kesim); *U aytishi kerak* (aytishi kerak – kesim).

Ot, sifat, son, olmosh, ravish, undov, taqlid so'zlarga fe'llarni qo'shish bilan yasalgan qo'shma fe'llar ham murakkab ot kesim sifatida tahlil etiladi. M., *Do'stim taklif etdi. Eshik tiq etdi. U dod soldi*.

Murakkab kesim deb nomlanuvchi yana bir kesim turi mavjud bo'lib, harakat nomili qurilmalar, murakkab tartibli so'z birikmalari, iboralar bilan ifodalangan kesimlar murakkab kesimlar deyiladi. Bunday birikmalar bir butun holda bitta gap bo'lagi vazifasida qo'llaniladi. Bunday birikmalarning tarkibi bo'laklarga ajratib tahlil etilmaydi.

1. Harakat nomi o'ziga tobelanuvchi bo'laklar bilan bir butun holda harakat nomili qurilmani tashkil etadi. M., *Vazifamiz – hamisha a'lo o'qish*. (*hamisha a'lo o'qish* – murakkab kesim)


2. Murakkab tartibli so'z birikmalari murakkab kesim vazifasida keladi.

M., *Bu – Jizzax davlat pedagogika universiteti*. (*Jizzax davlat pedagogika universiteti* – murakkab kesim)

3. Kesim vazifasidagi iboralar murakkab kesim sifatida tahlil etiladi. M., *Dilshodning qovog'idan qor yog'di*. (*qovog'idan qor yog'di* – murakkab kesim).

Gap bo'laklari hokim va tobe bo'laklarga ajraladi. Ma'nosi izohlanayotgan bo'lak hokim bo'lak deyiladi. Hokim bo'lakning ma'nosini izohlab, aniqlab yoki to'ldirib kelgan bo'lak esa tobe bo'lak hisoblanadi. Hokim bo'lak sintaktik jihatdan yetakchi vazifani bajaradi va boshqa bo'laklarni o'ziga bo'ysundiradi. Tobe bo'lak esa hokim bo'lakka grammatik va mazmun jihatdan bog'lanib, uning ma'nosini kengaytiradi yoki aniqlashtiradi. Ta'kidlab o'tish joizki, gapda barcha bo'laklar kesimga bevosita yoki bilvosita tobelanadi. Kesim mustaqil va

nomustaqil kesimga ajraladi. Nomustaqil kesim mustaqil kesimga tobelanadi, uning ma'nosini izohlaydi, to'ldiradi. Mustaqil kesim esa gapda hech qaysi bo'lakka tobelanmaydi.



Ushbu gapda *chiqsa* fe'li nomustaqil kesim, *yog'adi* fe'li esa mustaqil kesim vazifasida qo'llangan. Nomustaqil kesim mustaqil kesimning ma'nosini izohlab kelgan. Shaxs-son, zamon va buyruq-istak mayli shakllaridagi fe'l kesimlar hamda bog'lamali, bog'lamasiz ot kesimlar mustaqil kesimlardir. Tilimizda shart mayli shakli ham mustaqil, ham nomustaqil kesim shaklini yasashga xizmat qiladi. Shart mayli shaklidagi fe'l istak gaplarning kesimi bo'lib kelganda mustaqil kesim vazifasida bo'ladi. M.: *Qani endi yomg'ir yog'sa. Yomg'ir yog'sa edi. Yomg'ir yog'sa.* Istak gaplarning uyushiq holda kelishi kuzatiladi. M.: *Qani endi bahor kelsa, gullar ochilsa, ariqlardan zilol suvlar sharqirab oqsa.* Bunday gaplar orqali "xohish", "orzu-istak" ma'nolari anglashiladi. Ma'lumki, ergashgan qo'shma gaplar ikki qismdan iborat bo'ladi: bosh gap va ergash gap. Bosh gapning kesimi mustaqil kesim, ergash gapning kesimi esa nomustaqil kesim deb tavsiflanadi. Bunday gaplarda nomustaqil kesim mustaqil kesimdan anglashilgan ma'no-mazmunining sababi, maqsadi, holati, paytini izohlash vazifasida bo'ladi. M.: 1. *Bahor kelib, soylarda suvlar shildirab qoldi.* (U.) (*kelib* – nomustaqil kesim, *shildirab qoldi* – mustaqil kesim) 2. *Yomg'ir yog'sa, chO'llar yashnaydi.* (*yog'sa* – nomustaqil kesim, *yashnaydi* – mustaqil kesim). Zamon shaxs-son, mayl qo'shimchalarini olgan fe'llargina kesim vazifasini bajaradi deb qaralgan ishlarda ravishdosh, sifat-dosh, harakat nomi shakllari e'tiborga olinmaydi. Shu bois nomustaqil kesimlar haqida gap ketganda, asosan, shart mayli shaklidagi fe'llarga e'tibor qaratiladi. Shunga asoslanib aytish mumkinki, ergash gapning shart mayli shaklidagi kesimi nomustaqil kesim sifatida tahlil etiladi. Bunday kesimlar shart, payt, to'siqsizlik, maqsad, sabab ma'nolarini bildiradi. M.: 1. *Qalb salomat bo'lsa, aql ham, fikr ham salomat bo'ladi.* 3. *Kim o'qisa, u bilimdon bo'ladi.* 2. *Agar shu ko'rganlarini hikoya qilib bersa, ular ishonmaydilar.* 3. *Bolalarim o'qisa deb, men kitob sotib oldim.*

Shart mayli shaklidagi fe'llarning mustaqil kesim vazifasida qo'llanishi uchun maxsus nutqiy sharoit talab etiladi. M.:

- *Havo bulut bo'lsa, yomg'ir yog'adi.* (bulut bo'lsa – nomustaqil kesim)
- *Qachon yomg'ir yog'adi?*
- *Havo bulut bo'lsa.* (bulut bo'lsa – mustaqil kesim)

Xullas, kesim gapning eng muhim va markaziy bo'lagi bo'lib, fikr va hukmni ifodalaydi. U shaxs-son, zamon, mayl hamda tasdiq-inkor ma'nolarini bildiradi va ega bilan grammatik hamda mazmun jihatdan moslashadi. Kesim fe'l yoki boshqa so'z turkumlari orqali ifodalanib, sodda va murakkab, shuningdek mustaqil va nomustaqil shakllarda keladi. Gapdagi barcha bo'laklar kesimga tobelanadi va kesim orqali nisbiy tugallangan fikr anglashiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6- sinfi uchun darslik. – T.: Tasvir. 2017. – 208 b.

2. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. Umumta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. – T.: Tasvir. 2014. – 130 b.
3. Mavlonova K.M. [va boshq.] Ona tili: o'rta maktablarning 6-sinfi uchun darslik. – T.: Respublika ta'lim markazi, 2022.–224 b.
4. Qodirov M. va boshq. Ona tili: o'rta maktablarning 8-sinfi uchun darslik. – T.: Cho'lpon, 2019. –144 b.
5. Qodirov M., Ne'matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. – T.: Cho'lpon. 2014. – 144 b.
6. Фуломов А.Ғ., Асқарова М.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили (Синтаксис) – Т.: Ўқитувчи. 1965. – 316 б.